

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 6



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
6-son
noyabr, 2025

November 2025
Volume 3
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston
agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Voynash Sergey Aleksandrovich - i.f.n. dotsent (Qozon Volga bo'yi (federal)
universiteti)*

*Pulyayeva Valentina Nikolayevna - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Morkovkin Dmitriy Yevgeniyevich - i.f.d. professor (Rossiya Federatsiyasi hukumati
qoshidagi moliya universiteti)*

*Sadriiddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Chupin Aleksandr Leonidovich - i.f.d., professor, (P.Lumumba nomidagi Rossiya
xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d. dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyati: daromad manbalari va xarajalar tuzilmasining tahlili

Otaboyeva Jumagul Raxmatullayevna, Xayriddinov Shuxrat Botirovich

Финансовая деятельность высших учебных заведений Узбекистана: анализ источников доходов и структуры расходов

Отабоева Джумагуль Рахматуллаевна, Хайриддинов Шухрат Ботирович

Financial activities of higher education institutions in Uzbekistan: analysis of revenue sources and expense structure

Otaboeva Dzhumagul Rakhmatullaevna, Khayriddinov Shukhrat Botirovich

Received: November 3, 2025 Revised: November 7, 2025

■ Accepted: November 11, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim (oliy ta'lim) resurslardan foydalanishni o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Davlat oliygohlarining holati. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan xarajalar katta qismining byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlanayotganligi bu mablag'larning sarflanishiga nisbatan alohida munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Oliy ta'limni moliyalashtirish ikki ko'rinishda, ya'ni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan va ta'lim xizmatlari ko'rsatilishidan tushadigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilmoqda.
- **Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalari, byudjet mablag'lari, ta'lim tizimini moliyalashtirish, davlat byudjeti, byudjet xarajatlari, bozor iqtisodi.
- **Аннотация:** В данной статье исследуются особенности использования финансовых ресурсов в системе высшего образования. Рассматривается финансовое положение государственных вузов, при этом подчёркивается, что значительная часть расходов, необходимых для их деятельности, покрывается за счёт средств государственного бюджета. Такая ситуация требует формирования особого подхода к эффективному и прозрачному распределению указанных бюджетных ресурсов. Финансирование высшего образования в

Ўзбекистанда осуществляется в двух основных формах: за счёт средств государственного бюджета и доходов, получаемых от оказания образовательных услуг.

- **Ключевые слова:** высшие учебные заведения, бюджетные средства, финансирование системы образования, государственный бюджет, бюджетные расходы, рыночная экономика.
- **Abstract:** This article examines the distinctive aspects of financial resource utilization in the field of higher education. The study highlights the financial conditions of state universities, emphasizing that a significant portion of the expenditures necessary for the functioning of higher education institutions is covered by state budget funds. This situation necessitates the establishment of a specific approach to the efficient and transparent allocation of these funds. The financing of higher education in Uzbekistan is carried out in two main forms: through allocations from the state budget and revenues generated from the provision of educational services.
- **Keywords:** Higher education institutions, budgetary funds, education system financing, state budget, public expenditures, market economy.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda jahon tajribasidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan isloh etish, mehnat bozori talablarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. BMtning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasida "ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish" dolzarb vazifa etib belgilangan. Ushbu konsepsiyadan kelib chiqib O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi[1].

Mana 30 yildan ko'proq bo'ldiki, bozor munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida, qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, baribir kirib borayapti. Ortga yo'lning yo'qligi – mutlaqo aniq. Shu munosabat bilan kundalik hayotda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sub'ektlar (bu erda ularning yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi prinsipial ahamiyatga ega emas) uning talablariga moslashishga harakat qilmoqda. Zero, xo'jalik yuritishning yangi, zamonaviy usuli bo'lgan bozor iqtisodi – shuni taqozo etmoqda. Bundan, jumladan, respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda – OTM) ham chetda qolayotgani yo'q. Oxirgi yillarda ularning bu yo'nalishda qanday yutuqqa erishganliklari va qanday kamchiliklarga yo'l qo'yg'anliklari, xullas, qanday faoliyat ko'rsatgan-liklarini ifodalovchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, ular bilan tanishish, tahlil qilish va tegishli xulosalarni chiqarish OTMda byudjet mablag'larining samarali sarflanishi nuqtai-nazaridan prinsipial ahamiyatga egadir.

Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasining 2019-yil 3-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori asosida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror bilan mamlakatimizdagi

moliyaviy faoliyati barqaror, mod-diy-texnika bazasi etarli darajada shakllangan, ta'lim xizmatlari bozorida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga bo'lgan talab yuqoriligini hisobga olib, tajriba-sinov sifatida 10 ta oliy ta'lim muassasalari o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi hamda ushbu oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy sohalarida bir qator erkinliklar berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat byudjeti muassasalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashning alohida olingan xarajatlaridan samarali foydalanish masalalari kesimida ijtimoiy soha tarmoqlari, ya'ni ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va aholini qo'llab-quvvatlash xarajatlari misolida.

Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan:

1. Xayriddinov, Sh. B. Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. 2023. № 9-son. 382-384 b.[2]
2. Rahmonov D.A. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning samaradorligi – mamlakatlar innovatsion rivojlanishi omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2017. - №1. 141-145 b.[3]
3. Nurmuxamedova B.I., Srojiddinova Z.X., Sugirbaev G.G. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: InfoCapitalGrup, 2013. – 447 b.[4]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyat jarayonida analiz-sintez, induksiya-deduksiya va iqtisodiy modellashtirish metodlari yordamida daromad va xarajatlar o'rtasidagi muvozanat, moliyaviy barqarorlik hamda resurslardan foydalanish samaradorligi

baholandi.

Ma'lumki, bugungi kunda (2023 yilning 1 avgust sanasi nazarda tutilmoqda) O'zbekistonda jami 210 ta OTM bo'lib, ulardan 115tasi davlat organlari tasarrufidagi OTM, 65tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalari, 30tasi esa xorijiy OTM va ularning filiallari hisoblanadi. Respublika Oliy ta'lim muassasalarida 2022-2023 o'quv yiliga mo'ljallangan faoliyat yakunlanishi munosabati bilan yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda (jumladan, qarang: <https://kun.uz/56196532>) 2023 yilning birinchi yarmida eng ko'p daromad va zarar ko'rgan OTMlari ma'lum qilindi. Unga ko'ra, joriy yilning birinchi yarmini eng katta daromad bilan yakunlagan oliygoh bu Samarqand davlat chet tillar institutidir. Bir paytning o'zida, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi eng katta salbiy farq Namangan davlat universitetida ekanligi kuzatilgan. Shuningdek, bu o'rinda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan respublikamizdagi 70 ta davlat oliygohining 2023 yilning dastlabki olti oyi davomidagi daromadlari va xarajatlari haqidagi ma'lumot ham ochiqqlangan. Qayd etilishicha, hisobot davrida keltirilgan davlat OTMlarining umumiy daromadi – 4 trln. 501 mlrd. 238 mln. so'mni, xarajatlari esa 5 trln. 86 mlrd. 667 mln. so'mni tashkil etgan.

Respublika kesimida eng ko'p daromad O'zbekiston milliy universiteti (245,0 mlrd. so'm), Farg'ona davlat universiteti (191,0 mlrd. so'm), Qoraqalpog' davlat universiteti (188,0 mlrd. so'm) va Termiz davlat universiteti tomonidan (169,0 mlrd. so'm) shakllantirilgan. Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida joylashgan eng ko'p daromad ko'rgan oliy ta'lim muassasalarining qisqa ro'yxati esa quyidagicha: O'zbekiston milliy universiteti – 245,0 mlrd. so'm, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – 165,0 mlrd. so'm, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – 151,0 mlrd. so'm, Toshkent davlat texnika universiteti – 145,0 mlrd. so'm, Toshkent moliya instituti – 102,0 mlrd. so'm[5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat byudjeti mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek ularni maqsadli yo'naltirish hamda tizimli tarzda taqsimlash — mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Byudjet siyosatining to'g'ri shakllantirilishi va izchil amalga oshirilishi nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy sohaning izchil taraqqiyotini ham kafolatlaydi. Byudjet tizimining barcha bo'g'inlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatning ta'minlanishi moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Shu sababli, davlat mablag'larining har bir sohada maqsadga muvofiq sarflanishi iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti

sifatida namoyon bo'ladi. Davlat byudjeti resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, uning daromad qismini diversifikatsiya qilish va optimallashtirish zarur. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining o'sishi Davlat byudjeti daromadlari 2023 yil yakuni bilan 231 720,7 mlrd so'mni tashkil qildi. 2022 yilga nisbatan daromadlar 29 856,9 mlrd so'mga yoki 14,8 foizga oshgan, ushbu ko'rsatkich bilan bir qatorda xarajatlar qismini muvozanatda ushlab turish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. 2023 yilda oliy ta'lim muassasalarini saqlash xarajatlari 4 525,1 mlrd sumni tashkil etdi. Bundan tashqari 2023 yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasidan 170 100 ta talabalarga 1 914,8 mlrd so'm ajratilgan.[5]

Mazkur holat o'z navbatida, davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishning samaradorligini ta'minlash, ularni tarmoqlar bo'yicha oqilona taqsimlash hamda byudjet xarajatlarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish zaruratini kuchaytiradi. Moliyaviy oqimlarning bu tarzda tartibga solinishi iqtisodiy tizimning muvozanatli ishlashiga, byudjet intizomini mustahkamlashga va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2023–2024-yillar uchun ishlab chiqilgan byudjet xarajatlari prognoziga muvofiq, ijtimoiy sohalarga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi bosqichma-bosqich ortib borishi kutilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishni takomillashtirishning samarali yo'llari quyidagilardan iborat:

- Byudjet mablag'larining har bir soha bo'yicha maqsadli va samarali taqsimlanishini ta'minlash.

- Moliyaviy nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish, uning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar va metodologiyalarni joriy etish.

- Davlat byudjeti va moliyaviy tizimni yangi qonun va me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlash, byudjet intizomini ta'minlash.

- Byudjet jarayonining shaffofligini ta'minlash, xususan, ijtimoiy xarajatlar va infratuzilma loyihalariga ajratilgan mablag'lar samaradorligini yaxshilash.

Yuqorida keltirilgan raqamlar byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan OTMlarida byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash nuqtai-nazaridan juda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, bizningcha, ularni tahlil qila turib, qat'iy bir xulosaga kelish yoki qaror qabul qilish o'ta murakkabligicha qolaveradi. Buning ko'plab sabablari bor. Zero, yuqorida nomlari keltirilgan OTMlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni, ba'zi bir ob'ektiv sabablarga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri taqqoslashning iloji yo'q yoki shunday qilib chiqarilgan xulosa va qarorni etarli darajada asoslangan deb bo'lmaydi.

1-jadval.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi
MA'LUMOTLAR[6]

T/r	Oliy ta'lim muassasasining nomi	Jami daromadlar	Daromadlar			Jami xarajatlar	Xarajatlar		
			Byudjet mablag'lari bo'yicha reja (moliylashtirish)	To'lov shartnoma mablag'lari bo'yicha daromadlar (jami tushum)	Rivojlantirish mablag'lari bo'yicha daromadlar (jami tushum)		Byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar (kassa xarajatlari)	To'lov shartnoma mablag'lari bo'yicha xarajatlar (kassa xarajatlari)	Rivojlantirish mablag'lari bo'yicha xarajatlar (kassa xarajatlari)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
(Hisobot yilining ma'lumotlar e'lon qilinayotgan choragi)									
Ma'lumotlar e'lon qilinayotgan davr bo'yicha jami:		78 667 839	32 451 402	29 886 953	16 349 484	84 860 555	26 731 583	54 616 057	3 512 915
Hisobot yilining o'tgan davri bo'yicha jami:		223 294 017	77 926 151	120 995 469	24 372 397	125 244 766	70 468 325	131 784 734	10 040 323

OTMlarga tegishli bo'lgan raqamlarning taqqoslanish darajasiga bu muassasalarning faoliyat doirasi (ko'lami), mulkchilik shakli, akademik va moliyaviy mustaqillikning berilgan yoki berilmaganligi, qabul kvotalari, mavjud kontingentlar soni va h.k.lar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Yuqorida keltirilgan raqamlar byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan OTMlarida byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash nuqtai-nazaridan juda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, bizningcha, ularni tahlil qila turib, qat'iy bir xulosaga kelish yoki qaror qabul qilish o'ta murakkabligicha qolaveradi. Buning ko'plab sabablari bor. Zero, yuqorida nomlari keltirilgan OTMlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni, ba'zi bir ob'ektiv sabablarga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri taqqoslashning iloji yo'q yoki shunday qilib chiqarilgan xulosa va qarorni etarli darajada asoslangan deb bo'lmaydi. OTMlarga tegishli bo'lgan raqamlarning taqqoslanish darajasiga bu muassasalarning faoliyat doirasi (ko'lami), mulkchilik shakli, akademik va moliyaviy mustaqillikning berilgan yoki berilmaganligi, qabul kvotalari, mavjud kontingentlar soni va h.k.lar o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, hisobot davri (2023 yilning birinchi yarim yili) davomida deyarli bir xil faoliyat (oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish) bilan shug'ullanadigan OTMlari bir guruhining yuqori daromadga, boshqa bir guruhining esa pastroq daromadga va uchinchi guruhining esa daromadga emas, balki zararga ega bo'lishi, nazarimizda, kun tartibiga OTMlarida byudjet mablag'larini samarali sarflash nuqtai-nazaridan qator muammo (savol)larni qo'yadiki, ular o'z echim (javob)ini topmog'i lozim. Xususan, yuqorida qayd etib o'tilganidek, shu davrda eng ko'p daromadga ega bo'lgan O'zbekiston milliy universiteti (245,0 mlrd. so'm), Farg'ona davlat universiteti (191,0 mlrd. so'm), Qoraqalpoq davlat universiteti (188,0 mlrd. so'm), Termiz davlat universiteti (169,0 mlrd. so'm), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (165,0 mlrd. so'm), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (151,0 mlrd. so'm), Toshkent davlat texnika universiteti (145,0 mlrd. so'm), Toshkent moliya instituti (102,0 mlrd. so'm) bo'lishiga qaramasdan aynan shu guruhdagilardan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – 51,87 mlrd. so'm, Qoraqalpoq davlat universiteti – 42,13 mlrd. so'm, Termiz davlat universiteti – 37,663 mlrd. so'm, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – 35,358 mlrd. so'm, Toshkent moliya instituti – 32,795 mlrd. so'm, O'zbekiston milliy universiteti – 17,843 mlrd. so'm, Toshkent davlat texnika universiteti esa – 9,694 mlrd. so'm bilan zarar bilan yakunlaganligi bu hollarda ana shu toifadagi OTMlarda, jumladan, byudjet mablag'laridan foydalanish masalasida qator muammolarning borligidan darak beradi. Buning ustiga, 70 ta davlat oliygohlaridan 38 tasining yoki 54,9%ining

esa hisobot davrini, ya'ni 2023 yilning birinchi yarim yilligini zarar bilan tugatganligi yanada o'tkirligini ko'rsatadi.

Asosiy afzalliklari:

- Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining daromad manbalari va xarajatlar tuzilmasi o'zaro bog'liqlikda, tizimli va kompleks tarzda o'rganilgan bo'lib, bu iqtisodiy samaradorlikni baholashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilinib, oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi haqida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqilgan.

- Tadqiqot oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish uchun daromad manbalarini kengaytirish hamda byudjetdan tashqari resurslarni jalb etish mexanizmlarini taklif etadi.

- Ishda oliy ta'lim tizimida xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, bu sohada strategik qarorlar qabul qilishga ilmiy asos yaratadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, biz keltirilgan raqamlardan yaqqol ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiga o'tayotganimizga 30 yildan ko'proq vaqt bo'layotgan bo'lishiga qaramasdan hamon mablag'larni oqilona, tejab-tergab, iqtisod rejimiga qat'iy rioya etib samarali sarflash masalasi hamon dolzarbligicha turibdi. Bu, ayniqsa, o'z faoliyatlarini, jumladan, byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirayotgan OTMlari uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Moliyaviy nazorat organlarining byudjet xarajatlarini oqilona boshqarish va ularni optimallashtirishga qaratilgan yuqori samarali faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan islohotlar, o'z navbatida, davlat moliyaviy resurslarining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash, byudjet intizomini mustahkamlash hamda moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va tizimli asosda yo'lga qo'yish, bu yo'nalishda mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion echimlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu orqali nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirish bilan birga, davlat moliyaviy siyosatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, moliyaviy nazorat organlari faoliyatini

muvoqirlashtirishga oid me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu tizimning institutsional salohiyatini mustahkamlash va nazorat jarayonlarining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligi ortib, davlat moliyaviy boshqaruvi tizimi yanada mukammallashadi. Yuqorida keltirilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning samaradorligini yanada takomillashtirish mumkin. Ushbu jarayon, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy soha xarajatlari va infratuzilma loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur moliyaviy asos yaratadi.

Byudjet tizimining barqaror va muvoqirlashtirilgan ishlashi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish hamda moliyaviy boshqaruv tizimida ochiqlik va javobgarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xayriddinov Shuxrat Botirovich Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi / Хайриддинов Шухрат Батирович Каршинский государственный университет преподаватель / Khayriddinov Shukhrat Batirovich, Karshi State University, lecturer
 ► vipxayriddinov@mail.ru
 ■ 0009-0002-3139-8034
2. Otaboyeva Jumagul Raxmatullayevna Qarshi Davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida IRB yo'nalishi 4-kurs talabasi / Отабоева Джумагуль Рахматуллаевна, студентка 4 курса экономического факультета Каршинского государственного университета, специальность «ИРБ» / Otaboeva Dzhumagul Rakhmatullaevna, 4th-year student of the Faculty of Economics of Karshi State University, specializing in "IRB"

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-sonli "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tug'risidagi Farmoni.
- [2] Xayriddinov, Sh. B. Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. 2023. № 9-son. 382-384 b.[2]
- [3] Rahmonov D.A. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning samaradorligi – mamlakatlar innovatsion rivojlanishi omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2017. - №1. 141-145 b.[3]
- [4] Nurmuxamedova B.I., Srojiddinova Z.X., Sugirbaev G.G. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlari rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: InfoCapitalGrup, 2013. – 447 b.[4]
- [5] Fuqarolar uchun buydjet loyiha 2023 https://api.mf.uz/media/document_files/IB_2023_uz.pdf
- [6] O'zbekiston Respublikasi Hukumat portalida <https://gov.uz/oz/mintrans/sections/view/16147>
- [7] Xayriddinov, S. (2024). Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljallangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.
- [8] Xayriddinov, Sh. B. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari. Research focus international scientific journal.
- [9] Botirovich, Kh. A., & Batirovich, Kh. S. (2020). Main directions of state budget revenue formation. Special issue on financial development perspectives of the life standard in central asia april 2020 doi number: 10.5958/2249-877x. 2020.
- [10] Botirovich, Kh. A., & Batirovich, Kh. S. (2021). Local budget revenues as an important link of territorial revenue power. American journal of economics and business management.